

**KORPORATIV BOSHQARUVCHI MALAKA ATTESTATINI OLISH  
ISTAGIDA BO‘LGAN TALABGORLARNI SERTIFIKAT OLISH UCHUN  
O‘QITISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom korporativ boshqaruvchi malaka attestatini olish istagida bo‘lgan talabgorlarni sertifikat olish uchun maxsus dastur asosida o‘qitish tartibini belgilaydi.

2. Sertifikat — (keyingi o‘rinlarda - Korporativ boshqaruvchining malaka sertifikati) korporativ boshqaruv sohasida Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli (bir haftadan kam bo‘lmagan muddatda) o‘quv kurslarini, shu jumladan, onlayn, o‘zlashtirganligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib hisoblanadi.

3. Korporativ boshqaruvchining malaka sertifikati O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Iqtisodiyot va moliya vazirligi) huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi (keyingi o‘rinlarda — Oliy maktab) tomonidan korporativ boshqaruv sohasida malaka mavjudligini tasdiqlash uchun beriladi.

4. Talabgorlarning korporativ boshqaruv sohasidagi bilimlarini oshirish maqsadida, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan mazkur sohadagi so‘nggi zamonaviy bilimlar mujassamlashtirilgan qisqa muddatli (bir haftadan kam bo‘lmagan muddatda), shu jumladan, onlayn, maxsus o‘quv dasturi shakllantirilib, doimiy ravishda takomillashtirib boriladi.

5. Mazkur dastur «Biznesni boshqarish», «Kapital bozori va birja ishi» va «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik («Biznes innovatsiyalar va tadbirkorlik») magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha korporativ boshqaruv fanida ham o‘qitiladi.

6. Malaka sertifikati uchun nomzodlarni o‘qitish va o‘qish natijalari bo‘yicha sertifikat berish Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan ushbu nizom asosida amalga oshiriladi.

7. Nomzodlar o‘quv kursining yakuni bo‘yicha test topshirib, umumiy savollarning 55 foiziga javob berganda, tegishli tartibda sertifikatga ega bo‘ladi.

8. Mazkur sertifikat malaka attestatini olishga da‘vogarlik qilish huquqini beradi. Nomzod testdan umumiy savollarning 55 foizidan kam javob berganda testdan o‘ta olmagan hisoblanadi.

9. Talabgor yakuniy testni bepul qo‘shimcha to‘lovsiz yana ikki marta takroran topshirishga haqli.

10. Malaka attestatini olish uchun Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining korporativ boshqaruvchi maxsus dasturi bo‘yicha o‘quv kurslarini tamomlaganlik to‘g‘risidagi sertifikatga ega bo‘lgan shaxslar va Oliy maktabning «Biznesni boshqarish», «Kapital bozori va birja ishi» va «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik («Biznes innovatsiyalar va tadbirkorlik») magistratura mutaxassisligi bo‘yicha korporativ boshqaruv fanini 86 ball va undan yuqori darajalarda o‘zlashtirgan tinglovchilari da‘vogarlik qilish huquqiga ega.

Bunda talabgorlar arizalarini ushbu o'quv kurslari va magistratura tinglovchilari tomonidan mazkur fan o'qitilgandan keyin bir yil mobaynida berilishi mumkin.

## **2-bob. Korporativ boshqaruvchining malaka sertifikatini olish istagida bo'lgan nomzodlarni o'qitish**

11. Nomzodlar malaka attestatini olish uchun Oliy maktab tomonidan tashkil qilinadigan maxsus o'quv kurslarida belgilangan muddatlarda o'qiydi va dastur so'ngida sinovdan o'tkaziladi.

12. O'quv kursi "Korporativ boshqaruvchining malaka sertifikatini"ni olish uchun yuqori va quyi tashkilot rahbarlarini, Aksiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi a'zolarini va rahbarlari Malaka attestatini olishga da'vogarlik qilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs (keyingi o'rinlarda — ariza beruvchi) Oliy maktabga pasport yoki identifikatsiya ID-karta nusxasi, ariza, aloqa qilish ma'lumotlari va mehnat faoliyatini yuritayotgan shaxslar qo'shimcha ravishda ish joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan arizani taqdim etadi.

Ariza beruvchi bevosita o'zi kelib, pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron tarzda mazkur Nizomga 1-ilovada ko'rsatilgan shaklda ariza berishi mumkin. Bundan tashqari tashkilot va korxonalarining rahbarlari nomidan alohida xat orqali ham murojaat qilishi mumkin.

Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun ariza beruvchi javobgar hisoblanadi.

Tinglovchilar o'quv kurslarida <http://contracts.gsbe.uz/short-course-form> orqali tuzilgan shartnomalar asosida o'qitiladi.

Ariza beruvchi nomzodlar soni 20-25 nafar bo'lganda, Oliy maktabga 100 foizi miqdorida o'qitish uchun to'lov to'langanligi to'g'risidagi to'lov hujjatining nusxasi taqdim etilganda kursga qatnashish rasmiylashtiriladi.

Korporativ boshqaruvchining malaka sertifikatini Oliy maktabda hisobga olish seriyasi, tartib raqami hamda QR kodga ega bo'ladi. Oliy maktabda ushbu Nizomga 2-ilovada ko'rsatilgan shaklda tayyorlanadi hamda QR kod bilan tasdiqlangan.

## **3-bob. Yakunlovchi qoidalar**

Oliy maktab Korporativ boshqaruvchining malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar reestrini yuritadi.

Korporativ boshqaruvchining malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar reestrinda quyidagilar ko'rsatiladi:

Korporativ boshqaruvchining malaka sertifikatini berilgan sana va uning raqami;

Korporativ boshqaruvchining malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslarning pasporti yoki identifikatsiya ID-karta, aloqa qilish ma'lumotlari va ish joyi;

Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**Korporativ boshqaruvchi malaka attestatini  
olish istagida bo'lgan talabgorlarni sertifikat  
olish uchun o'qitish tartibi to'g'risidagi  
Nizomiga 1-ilova**

**Biznes va tadbirkorlik  
oliy maktabi direktoriga**

\_\_\_\_\_dan

**ARIZA**

Menga «Korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti va tamoyillari» kursida o'qishimga ruxsat berishingizni so'rayman.

\_\_\_\_\_  
(ish joyi va lavozimi)

Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR): \_\_\_\_\_

Aloqa qilish uchun telefon: \_\_\_\_\_

Elektron pochta manzili (agar mavjud bo'lsa):

\_\_\_\_\_

**Korporativ boshqaruvchi malaka attestatini  
olish istagida bo'lgan talabgorlarni sertifikat  
olish uchun o'qitish tartibi to'g'risidagi  
Nizomiga 2-ilova**

NAMUNASI

(titul varag'i)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GERBINING TASVIRI  
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

---

**GRADUATE SCHOOL OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP**

**BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
SERTIFIKATI**

№ 000000

---

---

(famiyasi, ismi, otasining ismi)

«\_\_\_\_\_» yo`nalishi bo`yicha o`quv kurslarini muvaffaqiyatli  
tugatdi

Direktor

M.O. Qayd raqami № \_\_\_\_\_

Toshkent sh., 20\_\_ yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_

(berilgan sana)